

**O'QITUVCHI NUTQ MADANIYATINING BOSHLANG'ICH
TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI**

Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi

Axmetova Nargiza Maxmud qizi

Xalqaro Nordik universitetining

2-bosqich magistranti

E-mail: Axmetovanargiza@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6906-7493

***Anotatsiya:** Ushbu tezisda o'quvchilarga ona tilini namunalar va maxsus mashqlarni muntazam va izchil o'rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borish ahamiyati haqida mulohaza qilingan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini asosiy vazifalari sifatida o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, muloqotga kirisha oladigan, shaxsiy fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza olishga qaratilganligi amaliy asoslar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, o'qituvchi nutq madaniyatining ta'lim samaradorligiga ta'siri haqida keltirilgan nazariy jihatlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Nutq, izchil, tafakkur, motivatsion, interaktiv, metod, ritm, kommunikativ, psixologik, lingvodidaktika, psixolingvistik.*

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'lim tuzulmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o'qituvchining nutqi – bu faqat dars o'tish vositasi emas, balki o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va muloqot madaniyati shakllantiruvchi eng muhim tayanchidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini, fikrlashni va til madaniyatini o'qituvchidan o'rganadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqining ravonligi, aniqligi ,

mazmundorligi muhim sanaladi.

Til milliy ma'naviyat, va ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati g'o'zalligi uning tilidadir" deydilar. Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining sodda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori bo'lishiga alohida e'tibor bergan.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI

Har bir kasbning o'ziga xos mehnat quroli mavjud bo'lganidek, pedagogik faoliyatda o'qituvchining asosiy kasbiy quroli - bu uning nutqidir. Nutq o'qituvchining ta'lim jarayonini boshqarish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda didaktik maqsadlarni amalga oshirish jarayonidagi eng muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli pedagogik nutqning mazmuni, shakli va ta'sirchanligini o'rganish masalasi ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelgan. Ular o'qituvchi nutqining tuzilishi, uning kommunikativ, tarbiyaviy va psixologik ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilib, mazkur sohada qator nazariy va amaliy asarlar yaratganlar.

Xorij olimlaridan A.A.Leontyev² - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning psixologik asoslarini yoritgan. Bundan tashqari L.S.Vygotskiy³ o'qituvchi nutqining o'quvchi tafakkuriga ta'siri haqida ilmiy asos bergan. Qolaversa, K.Rogers⁴- "Effective Communication in Teaching" o'qituvchining samimiy, tushunarli va motevatsion nutqi o'quvchilarning faolligini oshirishi haqida o'z qarashlarini bildirib o'tganlar.

O'zbek olimlaridan esa E. Begmatov⁵ asarlarda adabiy til me'yorlari, to'g'ri talaffuz, nutqning mantiqiyligi va ifodaliligi haqida so'z yuritganlar. Bundan tashqari A. Hojiyev⁶ tadqiqotlari o'qituvchi va talabalar uchun nutq madaniyatini oshirishda asosiy qo'llanma hisoblanadi. Qolaversa N.

¹ Azimova. M.D. O'qituvchi nutq madaniyati. Vol.: 2. May, 2022

² Leontyev A.A. Pedagogik muloqot

³ Vygotskiy L.S Nutq va tafakkur

⁴ Rogers K. Effective Communication in Teaching

⁵ Begmatov E. Nutq madaniyati asoslari

⁶ Hojiyev A. Til va nutq madaniyati

Mahmudov⁷ o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqotidagi til madaniyatini yoritadi.

ASOSIY QISM

Ushbu tadqiqotda o'qituvchi nutq maqaniyatining boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash, uning o'quvchilar bilim olishiga ta'sir darajasini baholash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot umumiy pedagogika, lingvodidaktika, psixolingvistika, metodika va kommunikativ kompetensiya nazariyalariga tayanib olib borildi.

Interaktiv metod – o'quvchilarni faollikga undaydi va o'z fikrini erkin bayon qilishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar – o'quvchilarda ijodkorlikni oshirishga, muloqotni rivojlantirishga yordam beradi.

Matn asosida ishlash metodlari – bu metodda o'quvchiga qisqa matn beriladi va matni ifodali o'qib berish, tushunganini qayta so'zlab berish, matnga moslab savollar tuzish, matn mazmunidan kelib chiqib yangi hikoya tuzish topshirig'i beriladi bu metod orqali bolalarning tushunish, qayta bayon qilish va fikr tuzish ko'nikmasi mustahkamlanadi.

She'r va tez aytish mashqlari - bu orqali bolalarda o'g'zaki nutqi rivojlantiriladi va ohang, talafuz va ritmni to'g'irlasha yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchinig nutq madaniyati ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omil sanaladi. Chunki o'qituvchi nutqi o'quvchi tafakkurini shakillantiruvchi, bilimni yetkazuvchi hamda shaxsiy fazilatlarini tarbiyalovchi asosiy vositadir. o'qituvchi dars davomida o'z nutqi orqali nafaqat bilim nberadi, balki o'quvchilarni fikrlashga, muloqotga, o'z fikrini ifodalashga o'rgatadi. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namunaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki kichik yoshdagi bolalar o'qituvchi so'zlash uslubiga, talaffuziga, hatto ohangiga taqlid qiladilar. Shuning uchun o'qituvchi nutqining ifodaliligi, ohangdorligi va samimiyligi o'quvchilarni darsga jalb etadi, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. o'qituvchining nutqi

⁷ Mahmudov N. Nutq madaniyati va uslubiyati
www.tadqiqotlar.uz

mantiqan izchil va tushunarli bo'lsa, o'quvchilarda axborot eslab qolish, o'z fikrini mustaqil bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

XULOSA. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchining dars jarayonida o'quvchilar faolroq, dars mazmuni esa tushunarliroq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish uchun o'z ustida doimiy ishlashlari, adabiy til me'yorlarini o'rganish, ifodali o'qish, notiqlik mashqlarini bajarishlari lozim. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi nutq madaniyati boshlang'ich ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir. U nafaqat dars sifati, balki o'quvchi shaxsining shakllanishi, tafakkuri va muloqot madaniyatining rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqi ravon aniq, mantiqan izchil va o'quvchi yoshiga mos bo'lgan o'qituvchining darsida tushuntirish jarayoni yengillashadi, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'onadi hamda ularning mustaqil fikrlashi rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimova, M. D. (2022). O'qituvchi nutq madaniyati (Vol. 2).
2. Begmatov, E. (2007). Nutq madaniyati asoslari.
3. Hojiyev, A. (2002). Til va nutq madaniyati.
4. Leontyev, A. A. (1974). Pedagogik muloqot.
5. Mahmudov, N. (2011). Nutq madaniyati va uslubiyati.
6. Rogers, K. (1995). Effective communication in teaching.
7. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and language.
8. Islamova, F. (2024). ЁШЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТ ВА СИФАТЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ: ЁШЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТ ВА СИФАТЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ. Nordic_Press, 1(0001).
9. Xalikova, Z. (2025). Maqola METAKOGNITIV MONITORING: TUSHUNCHALAR TAHLILI VA MUAMMONI O'RGANILGANLIGI. Nordic_Press, 7(0007).

Xabibullayevna, V. N., Mirakbarovna, F. D., Mirshadmanovna, X. Z., Shamsuddinovna, I. F., Saydullayevich, N. M. B. R., & Sayfutdinqizi, F. K. (2025). APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN EDUCATION: IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN. *Lex Localis: Journal of Local Self-Government*, 23.

10. Kuldashev, S. (2025). Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini qo'llashning ahamiyati. *Nordic_Press*, 7(0007).

Yulbarsov, O. (2024). Korpus–leksikografik ma'lumotlar bazasi uchun lingvistik instrument sifatida. *Nordic_Press*, 3(0003).